

KASBIY STANDART

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik", "Traktor-buldozer texnikasi va qurilmalarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish mexanigi", "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi traktorchi-mashinist", "Traktorchi" va "Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

avtomatlashtirish – mashinalar ishini inson ishtirokisiz, avtomatik tarzda boshqarish;

agregat – traktor bilan biriktirib ishlatiladigan qishloq xo'jalik mashinalari majmuasi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ekinlarni parvarishlash texnikasi – ekinlar o'sish jarayonida ularni oziqlantirish, begona o'tlarni yo'qotish va kasalliklarga qarshi kurashish uchun ishlatiladigan mexanizatsiyalashgan qurilmalar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda

namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kombayn – o'rim-yig'im ishlari uchun mo'ljallangan ko'p funksiyali mashina bo'lib, bir vaqtning o'zida o'rish, urish, donni ajratish va yig'ish ishlarini bajaradi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

kultivator – yer sathini yumshatish, begona o'tlarni yo'q qilish va yerga havo kirishini yaxshilash uchun ishlatiladigan mashina;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

mexanizatsiya – mehnat jarayonlarida qo'l mehnatini mashinalar bilan almashtirish. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiya dehqonchilik, chorvachilik va boshqa ishlarni yengillashtirishga xizmat qiladi;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

seyalka (urug' sepish mashinasi) – urug'larni teng va chuqurlikda sepib chiqadigan mexanizatsiyalashtirilgan qurilma;

sug'orish tizimi (irrigatsiya) – dehqonchilikda suvni samarali yetkazib berish uchun qo'llaniladigan usullar va texnik vositalar majmuasi;

traktor – turli qishloq xo'jalik mashinalarini tortuvchi yoki harakatga keltiruvchi asosiy energiya manbai. Yer haydash, urug' sepish, sug'orish ishlari

uchun ishlatiladi;

chorvachilik uskunalari – chorva uchun yem berish, sog'ish, tozalash va kuzatish jarayonlarini yengillashtiradigan qurilmalar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 5-apreldagi "2023-yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-113-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish uchun texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash, zamonaviy uskunalar va mashinalarni ishlab chiqish, joriy etish va boshqarish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yuqori sifatda va mehnat resurslarini tejagan holda yetishtirish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A seksiyasi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 01 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish 01.6 Qishloq xo'jalik sohasidagi yordamchi faoliyat turlari 01.61 Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari 01.61.1 Qishloq xo'jalik texnikasini operatori va texnik xodimi	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ekin yetishtirish, chorvachilik, hosil yig'ish va boshqa agrotexnik ishlarni samarali amalga oshirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mashinalari va uskunalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash hamda ishlab chiqarish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72332003 Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik	3
		72332007 Traktor-buldozer texnikasi va qurilmalarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish mexanigi	3
		83410005 Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi traktorchisi-mashinist	3
		83410006 Traktorchi	3
		31152003 Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	72332003 Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik	A1.3	Qishloq xo'jaligida yuqori unumdorlikka ega resurstejamkor texnologik jarayonlar, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish	A1.01.3	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llashda texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish, saqlash va rejalashtirish
				A1.02.3	Resurstejamkor va innovatsion texnikalardan foydalanish hamda mashina va mexanizmlarning ish jarayonlarini tashkil etish
		A2.3	Innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash tizimida avtomatlashtirish qurilmalari, kompyuter texnologiyalari va dasturlash ishlarini tashkillashtirish	A3.01.3	Texnologik jarayonlarda avtomatlashtirish tizimlarini qo'llash
				A3.02.3	Zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish
		A3.3	Loyihalash, texnika va texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini tahlil qilish	A4.01.3	Texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni amalda joriy qilish
				A4.02.3	Muhandislik va konstruktorlik yechimlarni amaliyotga tadbiq qilish
2	72332007 Traktor-buldozer texnikasi va qurilmalarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish mexanigi	B1.3	Qishloq xo'jaligi texnikasining uzellarini sozlash va tekshirish ishlarini bajarish	B1.01.3	Traktor, kombayn, ekish, haydash va o'rim-yig'im mashinalarining uzatmalar qutisi, gidravlik tizimi, tormoz, rul boshqaruvi va boshqa tizimlarini texnik talablarga muvofiq sozlash
				B1.02.3	Diagnostika jihozlari yordamida nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish
		B2.3	Yangi o'rnatilgan va ta'mirdan chiqqan agregat va	B2.01.3	Sinovdan keyin traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarining ishga tayyorligini baholash
				B2.02.3	Dvigatel, transmissiya va yurish qismidagi ishlarni mexanik, gidravlik

			mexanizmlarni sinovdan o'tkazish va sozlash		va elektr usullar orqali sozlash
3	83410005 Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi traktorchisi- mashinist	D1.3	Qishloq xo'jaligi ishlarini bajarishda traktor va unga ulanadigan agregatlar bilan ishlash	D1.01.3	Haydash, kultivatsiya, urug' sepish, yig'im-terim va boshqa agroteknik tadbirlarni traktor va qishloq xo'jaligi mashinalari yordamida bajarish
				D1.02.3	Ish jarayonida texnikaning optimal ishlashini ta'minlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		D2.3	Traktor va agregatlarning texnik xizmat ko'rsatish	D2.01.3	Dvigatel, transmissiya, yurish qismi va boshqa uzellarni nazorat qilish, moylash, tozalash va zarur hollarda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish
				D2.02.3	Ishdan oldin va keyin texnikani texnik ko'rikdan o'tkazish, muammolarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish
4	83410006 Traktorchisi	E1.3	Turli xil qishloq xo'jaligi ishlarida traktorni boshqarish va ishlatish	E1.01.3	Haydalgan yerlarni ishlov berish, urug' sepish, chopiq qilish, yig'im-terim ishlarini amalga oshirish
				E1.02.3	Traktorga mos agregatlar bilan kompleks ishlov berish
		E2.3	Traktorga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	E2.01.3	Dvigatel moyini almashtirish, filtrlarni tozalash/almashtirish, tormoz va yurish qismini tekshirish
				E2.02.3	Ishdan oldin va keyin traktorni texnik ko'rikdan o'tkazish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish
5	31152003 Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik	F1.5	Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini o'rnatish, sozlash va ishga tushirish	F1.01.5	Datchiklar, aktuatorlar, dasturlashtiriladigan kontrollerlar, boshqaruv panellari va boshqa avtomatika vositalarini loyihaga muvofiq o'rnatish
				F1.02.5	Texnologik jarayonlar monitoringi va avtomatik boshqaruv tizimlarini sozlash, sinovdan o'tkazish va ishga tushirish
		F2.5	Avtomatlashtirish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish	F2.01.5	Sensorlar, kontrollerlar, elektr va elektron qismlarning holatini tekshirish, diagnostika qilish va ta'mirlash
				F2.02.5	Ishlab chiqarish liniyalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun muntazam texnik xizmat ko'rsatish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik	
Mashg'ulot nomining kodi:	72332	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Issiq, sovuq, changli yoki hidli sharoitlarda ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, qisqa muddatlarda murakkab ta'mirlarni bajarishda va stressli vaziyatlarda samarali ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Traktor-buldozer texnikasi va qurilmalarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish mexanigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-Qishloq xo'jaligida yuqori unumdorlikka ega resurstejamkor texnologik jarayonlar, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish	A1.01.3-Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llashda texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish, saqlash va rejalashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Innovatsion texnikaning ishchi tizimlarini texnik diagnostika vositalari yordamida tekshirish
		2. Servis reglamenti asosida rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish
		3. Avtomatlashtirilgan texnologik tizimlarning dasturiy ta'minotini yangilash va sozlash
		4. Texnikani mavsum oralig'ida to'g'ri saqlash uchun texnologik yo'riqnomaga muvofiq konservatsiya qilish
		Ko'nikmalar:
		Sensorli va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini sozlash va kalibrlash
		Texnik xizmat reglamentlarini o'qish, tahlil qilish va xizmat ishlarini ketma-ketlikda amalga oshirish

		Diagnostika vositalari yordamida elektron va mexanik tizimlardagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		Innovatsion texnikaning saqlash talablariga muvofiq mavsumiy konservatsiya va texnik nazoratni amalga oshirish
		Bilimlar:
		Innovatsion qishloq xo'jaligi texnikasi va ularning ishlash tamoyillari
		Avtomatlashtirilgan va elektron boshqaruv tizimlarining tuzilishi va funksional sxemasi
		Texnik xizmat ko'rsatish tartibi va ekspluatatsiya hujjatlarini o'qish va tahlil qilish qoidalari
		Texnika xavfsizligi qoidalari, ekologik talablar va energiya samaradorligi asoslari
	A1.02.3- Resurstejamkor va innovatsion texnikalardan foydalanish hamda mashina va mexanizmlarning ish jarayonlarini tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnik topshiriq va agrotexnik talablar asosida ishga mos texnika va mexanizmlarni tanlash va ulardan foydalanish
		2. Texnikalarning ish rejimini ishlab chiqish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan texnologik kartalarni ishlab chiqish
		3. Innovatsion va resurstejamkor texnika ishlatiladigan ish joylarini tashkil etish va monitoring qilish
		4. Mashina va mexanizmlarning optimal ish rejimini ta'minlash uchun ularning sozligi, yoqilg'i sarfi va texnik xizmat ko'rsatish holatini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida innovatsion texnikalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish
		Mashina va mexanizmlar ish jarayonlarini agrotexnik talablar asosida rejalashtirish va tashkil qilish
		Resurstejamkor texnologiyalar bilan ishlovchi qurilmalarni sozlash, ishga tushirish va nazorat qilish
		Innovatsion texnikalarning ishlash parametrlarini masofadan monitoring va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Innovatsion va resurstejamkor qishloq xo'jaligi texnikasi turlari, tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Mashina va mexanizmlar ishlashining texnologik jarayonlari va ularning agrotexnik talablar bilan bog'liqligi
		Texnika va texnologiyalarni tanlashda texnik-iqtisodiy tahlil va samaradorlikni baholash usullari
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy monitoring va boshqaruv tizimlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Innovatsion texnika va texnologiyalarni xavfsiz va me'yoriy talablar asosida mustaqil boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun javobgarlik

		2. Resurstejamkor texnologik jarayonlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil aniqlash va ularni bartaraf etishda ma'suliyat
		3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida texnikalardan oqilona va tejamkor foydalanishda mas'uliyat
A2.3-Innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash tizimida avtomatlashtirish qurilmalari, kompyuter texnologiyalari va dasturlash ishlarini tashkillashtirish	A2.01.3- Texnologik jarayonlarda avtomatlashtirish tizimlarini qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik jarayonni boshqaruvchi avtomatlashtirilgan qurilmalarni o'rnatish va ularni sozlash
		2. Avtomatlashtirish tizimi orqali real vaqt rejimida jarayonni monitoring qilish va zarur hollarda parametrlarni moslashtirish
		Ko'nikmalar:
		Avtomatlashtirilgan boshqaruv qurilmalari bilan ishlash va ularni sozlash
		Jarayon parametrlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish
		Bilimlar:
		Avtomatlashtirilgan tizimlarning asosiy elementlari va ularning xususiyatlari
		Texnologik jarayonlarni boshqarish algoritmlari va avtomatik nazorat tamoyillari
	A2.02.3- Zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish	Mehnat harakatlari:
		1. Axborot tizimini loyihalash, o'rnatish va ishga tushirish
		2. Axborot tizimlari orqali ma'lumotlarni kiritish, saqlash, tahlil qilish va uzatish
		Ko'nikmalar:
		Axborot tizimlarini ishlab chiqishda ofis dasturlari, ma'lumotlar bazasi va bulutli texnologiyalar bilan ishlash
		Axborotlarni tezkor topish, saqlash va yetkazish
		Bilimlar:
		Axborot tizimlarining tarkibiy qismlari va ularning funksiyalari
		Ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish usullari hamda xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Avtomatlashtirish va dasturlash ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi va tizim ishonchligini ta'minlash uchun javobgarlik
		2. Kompyuter texnologiyalari va dasturlar bilan ishlashda mustaqil qaror qabul qilish va yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga intilish
A3.3-Loyihalash, texnika va texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini tahlil qilish	A3.01.3- Texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni amalda joriy qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Jarayon xaritalari, texnologik sxemalar va ish tartiblarini ishlab chiqish
		2. Loyihalashtirilgan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish muhitida sinovdan o'tkazish va tatbiq etish
		Ko'nikmalar:
		Texnologik jarayonning ish ketma-ketligini grafik va

		sxematik shaklda loyihalash
		Loyihalashtirilgan texnologik yechimni ishlab chiqarish sharoitida sinovfan oʻtkazish, joriy qilish va sozlash
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonlarning bosqichlari, tahlil usullari va loyihalash tamoyillari
		Ishlab chiqarish sharoitida yangi texnologik yechimlarni joriy qilish va baholash mezonlari
	A3.02.3- Muhandislik va konstruktorlik yechimlarni amaliyotga tadbiq qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Konstruktorlik hujjatlar asosida qurilma va tizim elementlarini yigʻish va sozlash
		2. Yangi muhandislik yechimlarni ishlab chiqarish jarayoniga sinov asosida joriy qilish va ularning samaradorligini baholash
		Koʻnikmalar:
		Chizmalar va texnik hujjatlar asosida qurilmalarni yigʻish va sozlash
		Yangi konstruktorlik yechimlarni ishlab chiqarish sharoitida sinovdan oʻtkazish va takomillashtirish
		Bilimlar:
		Konstruktorlik hujjatlar, chizmalar va texnologik xaritalarni oʻqish va tahlil qilish usullari
	Muhandislik yechimlarini ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirish tamoyillari va texnik talablar	
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Texnik va texnologik yechimlarni tanlashda tahliliy xulosalar asosida mustaqil qaror qabul qilish va uning natijalari uchun javobgarlik
2. Loyihalash va texnologik jarayonlarni baholashda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda masʼuliyat		
Texnik va/yoki texnologik talab		Multimetr, diagnostika skanerlari va boshqa zamonaviy diagnostika jihozlaridan foydalanish

Kasbning nomi:		Traktor-buldozer texnikasi va qurilmalarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish mexanigi	
Mashg'ulot nomining kodi:		72332	
TMR bo'yicha malaka darajasi:		3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:		Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:		Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:		Issiq, sovuq, changli yoki hidli sharoitlarda ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, qisqa muddatlarda murakkab ta'mirlarni bajarishda va stressli vaziyatlarda samarali ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:		boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:		Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:			
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:			
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
		3	Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi		Mehnat vazifalari	
B1.3-Qishloq xo'jaligi texnikasining uzellarini sozlash va tekshirish ishlarini bajarish	B1.01.3-Traktor, kombayn, ekish, haydash va o'rim-yig'im mashinalarining uzatmalar qutisi, gidravlik tizimi, tormoz, rul boshqaruvi va boshqa tizimlarini texnik talablarga muvofiq sozlash	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Uzatmalar qutisi, gidravlik va tormoz tizimlarini texnik hujjatlarga muvofiq sozlash va sinovdan o'tkazish	
		2. Rul boshqaruvi va yurish qismining sozligini tekshirish va zarur sozlash ishlarini amalga oshirish	
		3. Maxsus asbob-uskunalar yordamida texnika parametrlarini o'lchash va normativ talablarga moslashtirish	
		Ko'nikmalar:	
		Gidravlik, tormoz va uzatmalar tizimining ish holatini aniqlash va ularni texnik talablarga mos ravishda sozlash	
		Rul boshqaruvi va yurish qismini sozlashda maxsus asbob-uskunalaridan foydalanish	
Texnik xizmat hujjatlari asosida mashina tizimlarini			

		sinovdan o'tkazish va sozlash
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jaligi mashinalarining asosiy tizimlari tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Sozlash tartibi va texnik talablarga muvofiq me'yoriy parametrlar
		Texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari, chizmalar va ekspluatatsiya qo'llanmalari bilan ishlash qoidalari
	B1.02.3-Diagnostika jihozlari yordamida nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
		1. Diagnostika qurilmasini texnika tizimiga ulash va ish holatini tekshirish
		2. Aniqlangan nosozliklar bo'yicha xatolik kodlarini o'qish va tahlil qilish
		3. Nosozlikni aniqlash, texnik hujjatlarga muvofiq ta'mirlash va almashtirish
		Ko'nikmalar:
		Diagnostika qurilmalaridan foydalanish
		Xatolik kodlari va real vaqt parametrlarini tahlil qilish hamda ularni texnik hujjatlar bilan solishtirish
		Tizimdagi aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish uchun mos asboblardan foydalanish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jaligi texnikasining elektron, gidravlik va mexanik tizimlari asoslari
		Diagnostika uskunalari va ularning dasturiy ta'minotlar bilan ishlash tamoyillari
		Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etishning texnologik ketma-ketligi va texnik xavfsizlik me'yorlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnikaning uzal va tizimlarini texnik reglamentga muvofiq mustaqil sozlash va ishlarning sifatli bajarilishi uchun javobgarlik
		2. Sozlash jarayonida yuzaga keladigan texnik muammolarni muhandislik yondashuvi asosida mustaqil tahlil qilish
		3. Texnika bilan ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishda mas'uliyat
B2.3-Yangi o'rnatilgan va ta'mirdan chiqqan agregat va mexanizmlarni sinovdan o'tkazish va sozlash	B2.01.3-Sinovdan keyin traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarining ishga tayyorligini baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Sinovdan o'tkazilgan texnikaning asosiy tizimlarini ishga tushirish va ularning ish rejimini tekshirish
		2. Texnika ishga tushirilgandan so'ng diagnostika vositalari yordamida parametrlarni o'lchash va normativlarga muvofiqligini baholash
		3. Aniqlangan nomuvofiqlik va kamchiliklarni hujjatlashtirish va ularni bartaraf etish uchun choralar ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Ishga tushirilgan texnikaning asosiy funksional tizimlarini to'liq tekshirish va baholash

		Texnik holatni baholashda maxsus oʻlchov asboblari va elektron diagnostika qurilmalaridan foydalanish
		Baholash natijalarini texnik hujjatlar bilan solishtirish
		Bilimlar:
		Qishloq xoʻjaligi texnikasining asosiy uzal va tizimlari, ularning funksiyasi va normal ishlash koʻrsatkichlari
		Texnika sinovi, ekspluatatsiyaga topshirish va baholash tartibi
		Texnik nazorat standartlari
		Xavfsizlik qoidalari, diagnostika jarayonida aniqlanishi mumkin boʻlgan xavflar va ularni oldini olish usullari
	B2.02.3-Dvigatel, transmissiya va yurish qismidagi ishlarni mexanik, gidravlik va elektr usullar orqali sozlash	Mehnat harakatlari:
		1. Dvigatelning asosiy tizimlarini sozlash va ularning ishlash parametrlarini normaga keltirish
		2. Transmissiya va yurish qismini texnik hujjatlar asosida tekshirish, sozlash va ulangan uzellarni sinovdan oʻtkazish
		3. Gidravlik va elektr boshqaruv tizimlari nosozliklarini aniqlash, ularni sozlash va kerakli elementlarni almashtirish
		Koʻnikmalar:
		Dvigatel va transmissiya tizimlarini mexanik usullar orqali sozlash va sinovdan oʻtkazish
		Gidravlik tizimlarda bosimni sozlash, gidronasos va gidrotsilindr ishini tekshirish
		Elektr tizimlari va ulanishlarini tekshirish
		Bilimlar:
		Dvigatel, transmissiya, yurish qismi va ish organlarining konstruksiyasi, ishlash tamoyillari va sozlash meʼyorlari
		Gidravlik va elektr tizimlarining komponentlari va ularning oʻzaro aloqasi
		Sozlash ishlarida qoʻllaniladigan asbob-uskunalar va xavfsizlik qoidalari
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Sozlangan yoki taʼmirdan chiqqan agregatlarning xavfsiz va samarali ishlashi uchun javobgarlik
		2. Sinov natijalariga tayangan holda texnik hujjatlar asosida qaror qabul qilish va sozlash jarayonini mustaqil tashkil etish
Texnik va/yoki texnologik talab		Multimetr, diagnostika skanerlari va boshqa zamonaviy diagnostika jihozlaridan foydalanish

Kasbning nomi:	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi traktorchisi-mashinist	
Mashg'ulot nomining kodi:	83410	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Issiq, sovuq, changli yoki hidli sharoitlarda ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, qisqa muddatlarda murakkab ta'mirlarni bajarishda va stressli vaziyatlarda samarali ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Qishloq xo'jaligi dastgohlari va jihozlarini ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-mexanik
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3-Qishloq xo'jaligi ishlarini bajarishda traktor va unga ulanadigan agregatlar bilan ishlash	D1.01.3-Haydash, kultivatsiya, urug' sepish, yig'im-terim va boshqa agrotexnik tadbirlarni traktor va qishloq xo'jaligi mashinalari yordamida bajarish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Traktor va unga ulanadigan agregatlarni ishga tayyorlash, agregatlash va sozlash
		2. Mashina yordamida agrotexnik ishlarni bajarish: haydash, kultivatsiya, urug' sepish, chopiq, o'rim va mineral o'g'itlar sepish
		3. Ish tugagach texnikani tozalash, tekshirish va saqlashga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Traktor va turli qishloq xo'jaligi mashinalarini xavfsiz boshqarish va ulardan samarali foydalanish
		Agrotexnik tadbirlarga mos texnik sozlamalarni mustaqil amalga oshirish
		Texnikaga xizmat ko'rsatish: moylash, filtrlarni tozalash, uzellarni tekshirish

		Bilimlar:
		Asosiy agrotexnik tadbirlarning texnologiyasi
		Traktor va qishloq xo'jaligi mashinalarining tuzilishi, ishlash tamoyili va ularni ishga tayyorlash tartibi
		Texnika xavfsizligi, yoqilg'i-tejamkorlik, xizmat muddati va texnik xizmat ko'rsatish normalari
	D1.02.3-Ish jarayonida texnikaning optimal ishlashini ta'minlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnika ishga tushirilishidan oldin texnik holatini tekshirish va xizmat ko'rsatish
		2. Ish vaqtida texnika yuklamasini kuzatish, ish rejimini nazorat qilish
		3. Xavfsizlik belgilariga rioya qilish va xavf tug'ilganda texnikani to'xtatish choralari ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Traktorda xavfsiz va barqaror ish rejimida ishlash
		Texnikadagi nosozlik belgilarini vaqtda aniqlash
		Xavfsizlik talablariga muvofiq sinovlarni o'tkazish
		Bilimlar:
		Texnikaning optimal ishlash parametrlari
		Texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		Ish joyida favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnikani ishga tayyorlash va xavfsiz ekspluatatsiya qilish uchun mas'uliyat
		2. Traktor va unga ulanadigan agregatlarni mustaqil tarzda ishga tayyorlash, ularni texnik talablar asosida sozlash hamda ish davomida xavfsiz ishlashini ta'minlashda javobgarlik
D2.3-Traktor va agregatlarning texnik xizmat ko'rsatish	D2.01.3-Dvigatel, transmissiya, yurish qismi va boshqa uzellarni nazorat qilish, moylash, tozalash va zarur hollarda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnikaning asosiy uzellarini ko'zdan kechirish va ishga tayyor holatini baholash
		2. Dvigatel va harakat uzellarini moylash, filtrlarni tozalash va almashtirish
		3. Aniqlangan kichik nosozliklarni ta'mirlash
		Ko'nikmalar:
		Texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq nazorat va moylash ishlarini bajarish
		Asbob-uskunalar yordamida uzellarning texnik holatini aniqlash va xizmat ko'rsatish
		Yengil darajadagi mexanik nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etish
		Bilimlar:
		Dvigatel, transmissiya va yurish qismlarining tuzilishi va ishlash tamoyili
		Moylash sxemalari va mos moy turlari
		Kichik ta'mirlash ishlarida foydalaniladigan asbob turlari
		Texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
	D2.02.3-Ishdan oldin va keyin	Mehnat harakatlari:
		1. Texnikaning tashqi ko'rinishi, moy, yoqilg'i va sovutish

	texnikani texnik ko'rikdan o'tkazish, muammolarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish	suvi darajasini tekshirish
		2. Ishdan keyin uzellarni ko'zdan kechirish va yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash
		3. Aniqlangan muammolar bo'yicha nosozliklar ro'yxatini tuzish
		Ko'nikmalar:
		Texnikani har kuni ishga tushirishdan oldin va so'ng tekshirish
		Nosozlik belgilarini aniqlash, kelib chiqish sabablarini o'rganish
		Texnik holat haqida hujjatlashtirish va tegishli mutaxassislarga xabar berish
		Bilimlar:
		Traktor va agregatlarning texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi
		Eng ko'p uchraydigan nosozliklar va ularning xavfsizlikka ta'siri
		Texnik xizmat jurnallari va defektatsiya hujjatlarini yuritish normalari
		Mas'uliyat va mustaqillik:
	2. Xavfsizlik va texnik me'yorlarga qat'iy rioya qilishda mas'uliyat	
	3. Kichik nosozliklarni mustaqil bartaraf etish	
Texnik va/yoki texnologik talab		Multimetr, diagnostika skanerlari va boshqa zamonaviy diagnostika jihozlaridan foydalanish

Kasbning nomi:	Traktorchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	83410	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Issiq, sovuq, changli yoki hidli sharoitlarda ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, qisqa muddatlarda murakkab ta'mirlarni bajarishda va stressli vaziyatlarda samarali ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi traktorchisi-mashinist
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.3-Turli xil qishloq xo'jaligi ishlarida traktorni boshqarish va ishlatish	E1.01.3-Haydalgan yerlarni ishlov berish, urug' sepish, chopiq qilish, yig'im-terim ishlarini amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Agrotexnik ish turiga mos traktor va agregatni tanlash, ulash va ishga tayyorlash
		2. Texnika yordamida belgilangan chuqurlik, oraliq va tezlikda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish
		3. Ish tugagandan keyin texnikani tozalash, ko'zdan kechirish
		Ko'nikmalar:
		Traktor va agregatlarni boshqarish va maydonda samarali ishlatish
		Agrotexnik me'yorlarga muvofiq ishlov berish
		Ishdan oldin va keyin texnik xizmat ko'rsatish
		Bilimlar:
		Agrotexnik tadbirlarni o'tkazish texnologiyasi
		Mashina va agregatlarning tuzilishi va sozlash usullari
		Yerga ishlov berishda xavfsizlik qoidalari va ish unumdorligini oshirish usullari

	E1.02.3-Traktorga mos agregatlar bilan kompleks ishlov berish	Mehnat harakatlari:
		1. Traktorga agregatlarni texnik talablar asosida ulash va sozlash
		2. Agregat bilan belgilangan agroteknik ish turini amalga oshirish
		3. Ish tugagandan so'ng agregatlarni ajratish, tozalash va texnik holatini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Traktorga turli agregatlarni xavfsiz va to'g'ri agregatlash
		Agregatlarni sozlash va ularga samarali texnik xizmat ko'rsatish
		Agregat holatini muntazam nazorat qilish
		Bilimlar:
		Agregatlarning tuzilishi, ishlash tamoyili va ularni traktor bilan moslashtirish usullari
		Agroteknik ishlov talablari
		Agregatlarni ishlatishda texnik xizmat ko'rsatish me'yorlari
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Traktorni ishga tayyorlash va boshqarishda texnik xavfsizlik hamda ishlash talablariga rioya qilish uchun javobgarlik
		2. Maydonda bajarilayotgan ish turiga qarab traktor harakatini mustaqil nazorat qilish
E2.3-Traktorga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	E2.01.3-Dvigatel moyini almashtirish, filtrlarni tozalash/almashtirish, tormoz va yurish tizimini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Dvigatel moyini belgilangan texnik reglamentga muvofiq to'kish va yangisini quyish
		2. Havo, moy va yoqilg'i filtrlarini tozalash va almashtirish
		3. Tormoz va yurish tizimi qismlari sozligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Moy almashtirish
		Filtrlarni ajratish, tozalash va yangisini o'rnatish
		Tormoz diskleri, pedal oraliqlari va yurish qismi uzellarini tekshirish
		Bilimlar:
		Moy turlari, ularning dvigatelga mosligi va almashtirish davriyligi
		Filtrlarning tuzilishi va funksiyalari
		Tormoz va yurish tizimlarining asosiy qismlari va tekshirish mezonlari
	E2.02.3-Ishdan oldin va keyin traktorni texnik ko'rikdan o'tkazish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
		1. Traktorning asosiy tizimlari sozligini tekshirish va ishga tayyorlik holatini baholash
		2. Nosozlik belgilar aniqlangan hollarda, ularni hujjatlashtirish va zarur hollarda kichik ta'mirlash ishlarini amalga oshirish
		3. Texnik ko'rik natijalarini xizmat daftariga yozish va

		mas'ullarga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Traktorni har kuni ishga tushirishdan oldin va keyin tekshirish
		Nosozlik belgilarini aniqlash va baholash
		Oddiy texnik muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish
		Bilimlar:
		Traktorni texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi
		Eng ko'p uchraydigan nosozliklar va ularning sabablari
		Texnik xizmat jurnali va hujjatlarni yuritish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Traktorni ishga tayyorlashda texnik xizmat ishlarini mustaqil bajarish va ularning sifati uchun javobgarlik
2. Nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash va kichik ta'mirlash ishlarini rahbarsiz mustaqil amalga oshirish		
3. Ish davomida xavfsizlik talablariga rioya qilish va texnika holatini doimiy nazorat qilishda mas'uliyat		
Texnik va/yoki texnologik talab		Multimetr, diagnostika skanerlari va boshqa zamonaviy diagnostika jihozlaridan foydalanish

Kasbning nomi:	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik	
Mashg'ulot nomining kodi:	31152	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Issiq, sovuq, changli yoki hidli sharoitlarda ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, qisqa muddatlarda murakkab ta'mirlarni bajarishda va stressli vaziyatlarda samarali ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Traktorchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
F1.5- Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini o'rnatish, sozlash va ishga tushirish	F1.01.5-Datchiklar, aktuatorlar, dasturlashtiriladigan kontrollerlar, boshqaruv panellari va boshqa avtomatika vositalarini loyihaga muvofiq o'rnatish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Loyihaviy chizmalar asosida avtomatika vositalarining joylashuvini aniqlash
		2. Datchik, aktuator va PLC'ni tizimga ulash va ulanishlarini elektr xavfsizligiga muvofiq bajarish
		3. O'rnatilgan qurilmalarning ishlashini dastlabki tekshiruvdan o'tkazish
		Ko'nikmalar:
		Elektr va signal kabellarini to'g'ri ulash va himoyalash
		Avtomatika qurilmalarini chizma va texnik tavsif asosida to'g'ri joylashtirish
		O'rnatilgan tizimlarni sinovdan o'tkazish va dastlabki sozlash
		Bilimlar:
		Datchiklar, aktuatorlar va PLC'larning tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Loyihaviy hujjatlar, elektr sxemalar va montaj chizmalarini o'qish tartibi
		Elektr xavfsizligi me'yorlari va himoya vositalaridan

		foydalanish qoidalar
	F1.02.5-Texnologik jarayonlar monitoringi va avtomatik boshqaruv tizimlarini sozlash, sinovdan o'tkazish va ishga tushirish	Mehnat harakatlari:
		1. Boshqaruv tizimi elementlarini texnik hujjatlarga muvofiq sozlash va ulash
		2. Monitoring parametrlarini dasturiy interfeys orqali belgilash va ish rejimini sozlash
		3. Tizimni sinovdan o'tkazish, ishlash barqarorligini tekshirish va ishga tushirish
		Ko'nikmalar:
		Avtomatik boshqaruv tizimi elementlarini konfiguratsiya qilish va sozlash
		Monitoring qurilmalari orqali parametrlarni real vaqt rejimida kuzatish
		Tizimni xavfsiz ishga tushirish va sinovdan o'tkazish
		Bilimlar:
		Avtomatik boshqaruv va monitoring tizimlarining tuzilishi va funksional vazifalari
		Sensorlar, PLC, aktuatorlar bilan ishlash tamoyillari va sozlash usullari
		Sinov va ishga tushirish jarayonida xavfsizlik talablari va texnik reglamentlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tizim elementlarini texnik hujjatlarga muvofiq mustaqil o'rnatish
		2. Sozlash va ishga tushirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal qilish
		3. Avtomatlashtirilgan tizimning xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash uchun texnik talablar asosida qaror qabul qilishda mas'uliyat
F2.3- Avtomatlashtirish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish	F2.01.5-Sensorlar, kontrollerlar, elektr va elektron qismlarning holatini tekshirish, diagnostika qilish va ta'mirlash	Mehnat harakatlari:
		1. Sensor va elektron qurilmalarning ulanishlarini vizual va asbob yordamida tekshirish
		2. Multimetr, tester yoki diagnostika qurilmasi bilan nosozlikni aniqlash
		3. Aniqlangan nosoz qismlarni ta'mirlash va almashtirish
		Ko'nikmalar:
		Elektr va elektron tizimlar bilan ishlash
		Diagnostika asboblaridan foydalanish va natijalarni tahlil qilish
		Sensor, kabellar, kontrollerlarni almashtirish va ulash
		Bilimlar:
		Elektr va elektron qismlarning tuzilishi, vazifasi va ishlash tamoyillari
		Diagnostika usullari
		Elektr xavfsizligi qoidalar
		Qismlarni almashtirish tartibi
	F2.02.5-Ishlab chiqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Rejalashtirilgan grafik asosida uskunalarning texnik

	liniyalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun muntazam texnik xizmat ko'rsatish	holatini tekshirish va xizmat ko'rsatish
		2. Ishqalanishga uchraydigan qismlarni moylash, tozalash va almashtirish
		3. Ish natijalarini hujjatlashtirish va nosozlik aniqlanganda choralar belgilash
		Ko'nikmalar:
		Texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq uskunalar texnik holatini tekshirish, baholash
		Ishlab chiqarish uskunalaridagi oddiy nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		Bilimlar:
		Profilaktik texnik xizmat ko'rsatishning maqsadi, turi va davriyligi
		Ishlab chiqarish liniyasi tarkibidagi asosiy mexanizm va tizimlar
		Texnik xizmat hujjatlari bilan ishlash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tizim ish faoliyatini uzluksiz ta'minlash uchun xizmat ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishga javobgarlik
		2. Diagnostika natijalariga asoslanib nosozlikni mustaqil aniqlash
		3. Texnik xizmat va ta'mirlash jarayonida elektr xavfsizligi va sanoat me'yorlariga qat'iy rioya qilishda mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Multimetr, diagnostika skanerlari va boshqa zamonaviy diagnostika jihozlaridan foydalanish

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari
5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Suvanqulov Shohhusan Muxammad o'g'li
2	Toshkent davlat agrar universiteti O'quv-uslubiy boshqarmasi bosh mutaxassisi	G'afurov Jahongir Majid o'g'li
3	ToshDAU "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" kafedrası mudiri, dotsent	Mirzaxodjayev Sherzodxuja Shoxruxovich
4	ToshDAU "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" kafedrası dotsenti	Xalilov Raxmonberdi Djanovich
5	ToshDAU "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" kafedrası dotsenti	Xaliknazarov Urolboy Abduraxmonovich
6	"TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori	Matkarimov Ulug'bek Izzatullayevich